



ISSN: 2181-9416

4-SON, 2026

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
eLIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

4-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

HOMEPI 4

LAWYER HERALD

ISSUE 4



SALAYEV Nodirbek Saparbayevich

O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi
ilmiy, innovatsiyalar va axborot-tahliliy
ishlar bo'yicha prorektori
ORCID: 0000-0002-2147-8762
E-mail: n.salayev@sudacademy.uz

INSONSIZ JINOYAT: SUN'IY INTELLEKT, ALGORITM VA AYB TUSHUNCHASINING JINOYAT HUQUQIDAGI YANGI CHEGARALARI

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): SALAYEV N.S. Insonsiz jinoyat: sun'iy intellekt, algoritm va ayb tushunchasining jinoyat huquqidagi yangi chegaralari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2026) B. 101-108.

 4 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/4-011>

ANNOTATSIYA

Maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida jinoyat huquqi nazariyasi va amaliyotida yuzaga kelayotgan yangi muammolar ko'rib chiqilgan. Sun'iy intellekt tizimlarini jinoyat huquqining mustaqil subyekti sifatida tan olish imkoniyatlari tahlil qilingan. Aniqlanishicha, amaldagi jinoyat-huquqiy doktrina jinoyat subyektining ongi, iroda erkinligi, aybi hamda o'z qilmishining ijtimoiy va huquqiy oqibatlarini anglash qobiliyatiga asoslanadi. Sun'iy intellekt tizimlarida mazkur xususiyatlarning mavjud emasligi aniqlangan. Sun'iy intellekt ishtirokida sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishlarda ayb, sababiy bog'liqlik va javobgarlikni belgilash bilan bog'liq muammolar tavsiflangan. Xalqaro-huquqiy hujjatlar, xorijiy ilmiy doktrina hamda qiyosiy-huquqiy yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Sun'iy intellektga "elektron shaxs" maqomini berish, uni bevosita jinoiy javobgarlikka tortish va funksional jihatdan inson ongiga tenglashtirish konsepsiyalari tanqidiy baholangan. Ma'lum bo'ldiki, hozirgi texnologik rivojlanish bosqichida sun'iy intellektni mustaqil jinoyat subyekti sifatida e'tirof etish yetarli darajada asoslanmagan. Ishlab chiqaruvchi, dasturchi, integrator, mulkdor, operator va foydalanuvchi o'rtasida javobgarlikni taqsimlash mezonlari aniqlangan. Algoritmik audit, texnik ekspertiza, raqamli dalillar va texnologik xavflarni baholash institutlarini rivojlantirish zarurati asoslangan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, jinoyat subyekti, ayb, algoritmi, javobgarlik, elektron shaxs, jinoyat, javobgarlik.

САЛАЕВ Нодирбек Сапарбаевич

Проректор по научной, инновационной
и информационно-аналитической работе
Академии правосудия Республики Узбекистан
ORCID: 0000-0002-2147-8762
E-mail: n.salayev@sudacademy.uz

ПРЕСТУПЛЕНИЕ БЕЗ ЧЕЛОВЕКА: ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ, АЛГОРИТМ И НОВЫЕ ГРАНИЦЫ ПОНЯТИЯ ВИНЫ В УГОЛОВНОМ ПРАВЕ

АННОТАЦИЯ

В статье рассмотрены новые теоретические и практические проблемы уголовного права, возникающие в условиях стремительного развития технологий искусственного интеллекта. Проанализирована возможность признания систем искусственного интеллекта самостоятельным

субъектом преступления. Установлено, что современная уголовно-правовая доктрина основывается на наличии у субъекта сознания, свободы воли, вины и способности осознавать социальные и правовые последствия совершённого деяния. Выяснено, что современные системы искусственного интеллекта указанными признаками не обладают. Охарактеризованы проблемы определения вины, причинной связи и уголовной ответственности за общественно опасные деяния, совершённые с применением автономных алгоритмических систем. Рассмотрены международно-правовые акты, зарубежная научная доктрина и сравнительно-правовые подходы к регулированию искусственного интеллекта. Критически оценены концепции наделяния искусственного интеллекта статусом «электронного лица», его непосредственного привлечения к уголовной ответственности и функционального приравнивания алгоритмических процессов к человеческому сознанию. Установлено, что на современном этапе технологического развития признание искусственного интеллекта самостоятельным субъектом преступления не имеет достаточного теоретического и практического обоснования. Определены критерии распределения ответственности между производителем, разработчиком, интегратором, собственником, оператором и пользователем системы. Обоснована необходимость развития алгоритмического аудита, технической экспертизы, цифровых доказательств и механизмов предварительной оценки технологических рисков.

Ключевые слова: искусственный интеллект, субъект преступления, вина, алгоритм, ответственность, электронное лицо, преступление, уголовная ответственность.

NODIRBEK Salaev

Vice-Rector for scientific, innovation
and information-analytical affairs
Academy of Justice of the Republic of Uzbekistan
ORCID: 0000-0002-2147-8762
E-mail: n.salayev@sudacademy.uz

CRIME WITHOUT A HUMAN: ARTIFICIAL INTELLIGENCE, ALGORITHM AND THE NEW BOUNDARIES OF THE CONCEPT OF GUILT IN CRIMINAL LAW

ANNOTATION

The article examines emerging theoretical and practical challenges in criminal law caused by the rapid development of artificial intelligence technologies. The possibility of recognizing artificial intelligence systems as autonomous subjects of crime is analyzed. It is established that contemporary criminal law doctrine is based on the offender's consciousness, free will, guilt and ability to understand the social and legal consequences of their conduct. It is determined that current artificial intelligence systems do not possess these characteristics. The problems of establishing guilt, causation and criminal liability for socially dangerous acts committed through autonomous algorithmic systems are described. International legal instruments, foreign legal scholarship and comparative legal approaches to the regulation of artificial intelligence are considered. The concepts of granting artificial intelligence the status of an "electronic person", imposing direct criminal liability on AI systems and treating algorithmic processes as functionally equivalent to human consciousness are critically assessed. It is established that, at the current stage of technological development, recognizing artificial intelligence as an independent subject of crime lacks sufficient theoretical and practical justification. Criteria for allocating responsibility among manufacturers, developers, integrators, owners, operators and users are identified. The need to develop algorithmic auditing, technical expertise, digital evidence procedures and mechanisms for the preliminary assessment of technological risks is substantiated.

Keywords: artificial intelligence, subject of crime, guilt, algorithm, liability, electronic person, crime, criminal liability.

“Agar bir kun texnologik qirilma o‘zi qasd qilib insonni o‘ldirsa - jazoga kim sazovor bo‘ladi: qurilmami, uni yaratgan muhandismi, yoki uni sotib olgan korxonami?”. Mana shu oddiy, lekin yechimi yo‘q savolning ortida butun bir yangi huquqiy paradigma – “insonsiz jinoyat” muammosi yashiringan.

Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining tibbiyot, transport, moliya, harbiy soha va davlat boshqaruvida keng qo‘llanilishi natijasida inson ishtirokisiz yoki minimal ishtirokida qaror qabul qilish imkoniyati vujudga keldi. Avtomatik yoki masofadan boshqariluvchi transport vositalari, algoritmik savdo platformalari, yuzni tanish tizimlari va generativ SI modellari faoliyati doirasida yuzaga keladigan zararli oqibatlar an’anaviy jinoyat huquqi dogmatikasining asosiy institutlari bo‘lmish subyekt, ayb, sababiy bog‘liqlik tushunchalari oldida jiddiy nazariy muammolarni kun tartibiga qo‘ymoqda.

Xorijiy doktrinada bu muammo birinchilardan bo‘lib professor Gabriel Xalevi (Gabriel Hallevy, Ono akademik kolleji, Isroil) tomonidan kompleks tarzda o‘rganilgan bo‘lib, u o‘zining mashhur *“When Robots Kill: Artificial Intelligence Under Criminal Law”* nomli monografiyasida ishlab chiqaruvchi, dasturchi va foydalanuvchidan tashqari, aynan sun’iy intellekt tizimining o‘zini jinoiy javobgarlikka tortish modellarini taklif qilgan [1].

Shveysariya olimlari Monika Simmler va Nora Markvalder esa *“Guilty Robots? – Rethinking the Nature of Culpability and Legal Personhood in an Age of Artificial Intelligence”* asarida ayb (culpability) tushunchasining mohiyatini qayta ko‘rib chiqish zaruratini asoslab berganlar [2]. Xuddi shunday, Xitoy olimi Chjuochjen Duan ilmiy asarlarida kiberjinoyatchilikning SI bilan bog‘liq yangi shakllarini tahlil qilib, javobgarlikning subyektiv tomonini qayta talqin qilish zarurligini ko‘rsatgan [3].

Tarixda bunday voqealar allaqachon sodir bo‘lgan. 1980-yillarda Yaponiyada ishchi sanoat roboti tomonidan o‘ldirilgan. Yaponiyadagi mototsikl ishlab chiqaruvchi zavodda ishlayotgan sun’iy intellekt bilan boshqariladigan robot yaqinida bo‘lgan xodimni xato ravishda o‘z vazifasiga tahdid sifatida baholaydi. Shundan so‘ng robot ushbu tahdidni bartaraf etishning eng samarali usuli sifatida xodimni yonida ishlab turgan sanoat uskunasi itarib yuborishni hisoblab chiqadi. O‘zining kuchli gidravlik manipulyatori yordamida robot xodimni ishlayotgan uskunaga urib yuboradi, natijada u voqea joyida halok bo‘ladi. Shundan keyin robot hech narsa bo‘lmagandek o‘z vazifalarini bajarishda davom etadi. Bu hodisa keyinchalik olimlar tomonidan *“mashina aybdormi?”* degan savolni birinchi marta jiddiy tarzda kun tartibiga qo‘ygan edi [4]. O‘shandan beri, savol hamon javobsiz qolmoqda, faqat endi *“robot”* o‘rnida o‘zini o‘zi o‘rgatuvchi, inson nazoratisiz qaror qabul qiladigan algoritmlar turibdi.

Muammoning miqyosi esa yildan-yilga keskin ortib bormoqda: tadqiqotlarga ko‘ra, 2024-yilda dunyo bo‘yicha tashkilotlarning 87 foizi sun’iy intellekt yordamida amalga oshirilgan hujumlarga duch kelgan, SI natijasida firibgarlik orqali ko‘rilgan zarar 2027-yilga borib 40 milliard AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda, dipfeyk vositalarining *“qora bozor”*dagi muomalasi esa 223 foizga o‘sgan [5].

Demak, gap endi faqat nazariy mulohaza yuritish haqida emas, balki gap har kuni minglab insonlarga daxldor bo‘layotgan amaliy huquqiy bo‘shliq haqida bormoqda.

So‘nggi uch yil ichida (2023–2026) SIning tartibga solish borasida bir qator muhim xalqaro hujjatlar qabul qilindi. 2024-yil 13-iyunda Yevropa Parlamenti va Kengashi tomonidan *“Sun’iy intellekt to‘g‘risida”*gi Reglament (Artificial Intelligence Act) yakuniy tasdiqdan o‘tkazilib, u 2024-yil 1-avgustda kuchga kirdi [6]. Mazkur Reglament jinoiy javobgarlik masalalarini bevosita tartibga solmasa-da, yuqori xavfli SI tizimlariga nisbatan risk-asosli yondashuvni joriy etish orqali jinoyat-huquqiy baholash uchun institutsional asos yaratadi.

2024-yil 5-sentabrda Vilnyus shahrida Yevropa Kengashining *“Sun’iy intellekt, inson huquqlari, demokratiya va qonun ustuvorligi to‘g‘risida”*gi konvensiyasi - bu sohadagi birinchi xalqaro majburiy kuchga ega shartnoma hisoblanadi [7]. Konvensiya davlatlarni SI tizimlari hayot sikli davomida inson huquqlariga, demokratiya va qonun ustuvorligiga muvofiqlikni ta‘minlashi hamda tavakkalchilikka asoslangan baholash va zarur hollarda SIning ayrim qo‘llanilishiga taqiq (red lines) joriy etish imkoniyatini nazarda tutadi.

Shuningdek, 2017-yilda Yevropa Parlamenti Huquqiy masalalar qo‘mitasi murakkab avtomatik robotlarga *“elektron shaxs”* (electronic personhood) maqomini berish to‘g‘risidagi taklifni muhokama qilgan edi, ammo bu g‘oya ko‘plab olimlar tomonidan keskin tanqid qilinib, amalda rad etildi [8].

Mazkur xalqaro yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy huquqiy siyosat sun'iy intellektni mustaqil javobgarlik subyekti sifatida tan olishdan ko'ra, undan foydalanish bilan bog'liq xavflarni oldindan aniqlash, nazorat qilish va boshqarishga ustuvor ahamiyat bermoqda. Bunday yondashuvning markazida texnologiyaning o'zi emas, balki uni yaratish, dasturlash, muayyan faoliyatga joriy etish va nazorat qilish vakolatiga ega bo'lgan shaxslarning majburiyatlari turadi. Shu sababli sun'iy intellekt ishtirokida yuzaga kelgan zararli oqibatlarni jinoyat-huquqiy baholashda algoritmning tashqi harakati bilan cheklanib qolmasdan, uni ishlab chiqish va ekspluatatsiya qilish jarayonidagi inson qarorlari, nazorat imkoniyatlari, xavfni oldindan ko'rish darajasi hamda ehtiyot choralariga rioya etilgan-etilmaganligini aniqlash zarur bo'ladi.

Biroq sun'iy intellekt tizimlarining tobora avtonomlashib borishi an'anaviy javobgarlik modellarining imkoniyatlarini ham cheklamoqda. O'zini o'zi o'rganuvchi algoritm dastlabki dasturiy topshiriqdan tashqariga chiqib, ishlab chiquvchi yoki foydalanuvchi tomonidan bevosita nazarda tutilmagan qarorni qabul qilgan hollarda zararli oqibatni muayyan shaxsning qasdi yoki ehtiyotsizligi bilan bog'lash murakkablashadi. Natijada "kim harakatni sodir etdi?", "kim oqibatni oldindan ko'rishi lozim edi?" va "kimda uni bartaraf etish imkoniyati mavjud bo'lgan?" degan savollar jinoyat-huquqiy tahlilning asosiy mezonlariga aylanadi. Aynan shu holat sun'iy intellektning jinoyat subyekti bo'lishi mumkinligi, algoritmik faoliyatga nisbatan ayb tushunchasini qo'llash chegaralari va javobgarlikni insonlar o'rtasida taqsimlashning yangi modellarini ilmiy jihatdan qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Sun'iy intellekt jinoyat subyekti bo'la oladimi? An'anaviy jinoyat huquqi nazariyasiga ko'ra, jinoyat subyekti bu aqli raso, muayyan yoshga yetgan jismoniy shaxs hisoblanadi. Subyektning bosh xususiyati uning iroda erkinligiga, ongiga va ijtimoiy-huquqiy ma'suliyatni tushunish qobiliyatiga ega bo'lishidir. Sun'iy intellekt tizimi esa na biologik, na ijtimoiy ma'nodagi "shaxs" emas balki u algoritmik tuzilma, dasturiy kod va statistik modellardan iborat.

Xalevi modeli: "innovatsion agent" nazariyasi. Bugungi kunda SIning jinoyat subekti sifatidagi maqomi borasida bir qancha qarashlar mavjud. G. Xalevi tomonidan ilgari surilgan konsepsiyaga ko'ra, SI tizimlarining jinoiy javobgarligini uch xil model orqali tushuntirish mumkin: 1) "vosita orqali sodir etuvchi" (perpetrator-via-another) modeli - bunda SI aqli zaif shaxs, bola yoki hayvon kabi "beayb vosita" sifatida ko'riladi, ayb esa dasturchi yoki foydalanuvchiga yuklanadi; 2) "tabiiy-ehimoliy oqibat" (natural-probable-consequence) modeli - bunda SIning yaxshi maqsadda yaratilgan dasturiy komponenti kutilmagan tarzda zararli harakatni amalga oshiradi; 3) "to'g'ridan-to'g'ri javobgarlik" (direct liability) modeli - bunda murakkab SI tizimi actus reus (harakat)ni ham, mens rea (ayb)ni ham mustaqil ravishda "bajargan" deb tan olinadi [9].

Ushbu uchinchi model aynan "insonsiz jinoyat" muammosining markazida turadi, chunki u murakkab o'z-o'zini o'rgatuvchi va boshqaruvchi tizimlarga nisbatan algoritmning mustaqil "fikrlash"ini tan olishni talab qiladi, bu esa jinoyat huquqida inson markaziy o'rinda turishini ko'rsatuvchi mohiyatga to'g'ridan-to'g'ri zid keladi.

Huquqiy subyektlik va "funktional ekvivalent" g'oyasi. Silviya Voytchak SIga huquqiy subyektlik berish masalasini mulkiy-huquqiy nuqtai nazardan tahlil qilib, bunday subyektlik fakat ma'muriy-texnik vosita sifatida, inson mas'uliyatini "yashirish" uchun emas, balki javobgarlikni aniqlashtirish uchun qo'llanilishi mumkinligini ta'kidlaydi [10]. Simmler va Markvalder esa, aksincha, ayb tushunchasining mohiyatan inson ongiga xos hodisa ekanini ta'kidlab, SIga nisbatan "ayb" emas, balki alohida - "algoritmik xavf" (algorithmic risk) asosidagi yangi javobgarlik toifasini taklif qilishadi [11].

I.R.Begishev va Z.I.Xisamova SIning jinoyat subyekti sifatidagi huquqiy maqomini tan olish masalasini javobgarlikni chegaralashning asosiy muammosi, deb baholaydilar [12]. Ularning xulosasiga ko'ra, hozirgi bosqichda SI ni mustaqil jinoyat subyekti sifatida tan olish ilmiy jihatdan asoslanmagan, chunki u na iroda erkinligiga, na jamiyatga nisbatan ijtimoiy-axloqiy mas'uliyatni tushunish qobiliyatiga ega emas [13].

Xulosa qilib aytganda, bugungi xalqaro doktrinadagi ustuvor pozitsiya shundan iboratki, SI hozirgi texnologik darajada mustaqil jinoyat subyekti bo'la olmaydi, lekin kelajakda "kuchli SI" (strong AI, machina sapiens) yuzaga kelgan taqdirda bu masala qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Jinoyat huquqining klassik doktrinasida ayb (mens rea) - subyektning o'z harakati va uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga nisbatan psixik munosabati sifatida tushuniladi (qasd yoki ehtiyotsizlik shaklida). Bu tushuncha to'raligicha inson ongingning mavjudligini, idrok etish, anglash va iroda bildirish qobiliyatini taqozo etadi.

Prof. Xalevi ta'kidlashicha, kuchli SI tizimlari funksional jihatdan inson ongiga "ekvivalent" ya'ni teng bo'lgan holatda, boshqacha aytganda, agar tizim ma'lumotlarni qayta ishlash orqali muayyan xulosaga "kelgan" va shu xulosa asosida ijtimoiy xavfli harakatni amalga oshirgan bo'lsa, bu holat subyektiv tomonga funksional jihatdan tenglashtirilishi mumkin.

Biroq shveysariyalik olimlar Gless, Silverman va Vaygend ushbu yondashuvga tanqidiy munosabatda bo'lib, jazoning maqsadlari bo'lmish prevensiya, tarbiyaviy ta'sir, ijtimoiy muvozanatni tiklash va pushaymonlik hissi uyg'otish kabi xususiyatlar faqat insonga xos ekanini, SI bularning hech birini his qila olmasligini ta'kidlaydilar [14]. Demak, hatto SI qilmishning ob'ektiv tomonini "bajargan" taqdirda ham, unga nisbatan an'anaviy mazmundagi ayblovni ya'ni "psixik munosabat"ni tatbiq etish mantiqan mumkin emas, bu esa jazo tizimining maqsadiga putur yetkazadi.

Shu nuqtai nazardan, sun'iy intellektga nisbatan jinoiy javobgarlikni belgilash masalasi faqat uning murakkab axborotni qayta ishlashi, mustaqil qaror chiqarishi yoki inson xatti-harakatlariga o'xshash natijalarni yuzaga keltirishi bilan hal etilishi mumkin emas. Chunki tashqi funksional o'xshashlik ichki psixik jarayonning mavjudligini anglatmaydi. Algoritm muayyan maqsadni tanlayotgandek ko'rinishi mumkin, biroq u ushbu maqsadning axloqiy yoki huquqiy mohiyatini anglamaydi, qilmishning taqiqlanganligini tushunmaydi va sodir etilgan oqibatga nisbatan pushaymonlik yoki mas'uliyat hissini boshdan kechirmaydi. Demak, sun'iy intellekt faoliyatini insonning ongli va irodaviy xulq-atvoriga tenglashtirish ayb prinsipining mazmunini haddan tashqari kengaytirib, shaxsiy javobgarlik va aybsiz javobgarlikka yo'l qo'ymaslik kabi jinoiyat huquqining fundamental qoidalarini zaiflashtirishi mumkin.

Bundan tashqari, sun'iy intellektni mustaqil jinoiyat subyektini sifatida tan olish jazo choralarining mazmuni va amaliy samaradorligi bilan bog'liq yangi savollarni ham keltirib chiqaradi. Xususan, sun'iy intellektga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish, axloqan tuzatish, pushaymonlikka undash yoki qayta ijtimoiylashtirish kabi an'anaviy jazo choralarini qo'llash mumkin emas. Uni o'chirish, faoliyatini cheklash, dasturiy ta'minotini bloklash yoki foydalanishdan chiqarish esa jazo emas, balki texnik xavfsizlik va huquqiy himoya chorasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, muammoning maqbul yechimi algoritmi "aybdor" deb e'tirof etishda emas, balki sun'iy intellektni yaratish, o'qitish, joriy etish va nazorat qilish jarayonida ishtirok etgan shaxslarning majburiyatlari, xavfni oldindan ko'rish imkoniyati va nazorat darajasini aniq belgilash asosida javobgarlikni taqsimlashdan iborat.

Javobgarlik kimga yuklanadi: ishlab chiqaruvchi, foydalanuvchi, mulkdor yoki sun'iy intellektning o'zi? Javobgarlikni belgilash masalasi amaliy jihatdan eng murakkab muammolardan biridir, chunki zamonaviy SI tizimlari ko'p qatlamli ishtirokchilar (dasturchi, ma'lumotlar provayderi, ishlab chiqaruvchi, integrator, foydalanuvchi, mulkdor) zanjirida faoliyat yuritadi.

Gless va Ligeti fikriga ko'ra, Yevropa Ittifoqi avtomatik harakatlanuvchi transport vositalariga nisbatan jinoiy javobgarlik masalasida o'ta ehtiyotkor yondashuvni namoyish etmoqda, chunki Yevropa kontinental huquq an'alarida jinoiy javobgarlik XIX asrdan beri shaxsiy ayb prinsipiga asoslangan bo'lib, u mohiyatan inson harakatlariga tayanadi [15]. Mualliflar ta'kidlashicha, ayrim davlatlar hatto yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligini ham tan olmaydi, bu esa SI javobgarligini tartibga solishni yanada murakkablashtiradi.

Amalda javobgarlikni taqsimlashda quyidagi mezonlar qo'llanilishi mumkin:

1) Ishlab chiqaruvchi - agar zarar tizimning loyihalash xatosi yoki yetarli darajada sinovdan o'tkazilmaganligi sababli yuzaga kelgan bo'lsa;

2) Dasturchi - agar zarar algoritmining noto'g'ri yozilishi, mezonlarning noto'g'ri belgilanishi yoki xatolarni bartaraf etmaslik oqibatida yuzaga kelgan bo'lsa;

3) Foydalanuvchi - agar zarar tizimdan noto'g'ri foydalanish, uning ko'rsatmalariga rioya qilmaslik yoki tizimni mo'ljallanmagan maqsadda ishlatish natijasida yuzaga kelgan bo'lsa;

4) Mulkdor - tizimni texnik xizmat ko'rsatish, yangilash va nazorat qilish bo'yicha majburiyatlarni bajarmagan taqdirda javobgar bo'lishi mumkin.

Biroq mazkur mezonlarni qo'llashda faqat zararli oqibatning bevosita sababini aniqlash yetarli emas. Har bir ishtirokchining sun'iy intellekt tizimi ustidan amaldagi nazorat darajasi, xavfni oldindan ko'rish imkoniyati, kasbiy majburiyatlari va zararli oqibatning oldini olish uchun zarur choralarni ko'rgan-ko'rmaganligi ham baholanishi lozim. Masalan, ishlab chiqaruvchi tizimning umumiy xavfsizligi uchun javobgar bo'lsa, dasturchi algoritmnining texnik va mantiqiy ishlashiga, ma'lumotlar provayderi esa o'qitish uchun taqdim etilgan ma'lumotlarning sifati va xolisligiga mas'ul bo'lishi mumkin. Integrator sun'iy intellekt tizimini muayyan faoliyatga moslashtirishda yuzaga keladigan xavflarni hisobga olishi, foydalanuvchi va mulkdor esa undan foydalanish qoidalari, texnik nazorat hamda muntazam yangilash talablariga rioya etishi shart. Shu sababli javobgarlikni aniqlash har bir holatda ishtirokchilarning vazifalari va real ta'sir imkoniyatlarini alohida tahlil qilishni talab etadi.

Ayrim hollarda zarar bir shaxsning xatti-harakati natijasida emas, balki bir necha ishtirokchining kamchiliklari o'zaro qo'shilishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin. Masalan, algoritmdagi dasturiy nuqson ishlab chiqaruvchining yetarli sinov o'tkazmaganligi, integratorning xavfsizlik talablariga rioya qilmaganligi va foydalanuvchining tizim ogohlantirishlarini e'tiborsiz qoldirishi bilan birgalikda zararli natijaga olib kelishi ehtimoldan xoli emas. Bunday vaziyatlarda jinoiy javobgarlikni faqat bitta shaxs zimmasiga yuklash adolat prinsipiga mos kelmaydi. Shuning uchun sun'iy intellekt ishtirokidagi qilmishlarda differensial javobgarlik modelidan foydalanish, ya'ni har bir ishtirokchining aybi, nazorat darajasi va oqibatga qo'shgan sababiy hissasini inobatga olgan holda javobgarlikni individuallashtirish maqsadga muvofiqdir.

Jinoyat huquqi insonsiz qaror qabul qiluvchi texnologiyalar davriga tayyormi? Umumiy tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy jinoyat huquqi tizimlari hozircha SIning mustaqil jinoyat subyekti sifatidagi maqomini tan olishga tayyor emas. Buning sabablari quyidagilardan iborat, birinchidan, jazoning klassik maqsadlari ya'ni umumiy va xususiy prevensiya, tarbiyaviy ta'sir va adolatni tiklash faqat ongli va irodali subyektga nisbatan amalga oshirilishi mumkin; ikkinchidan, SI moddiy mulkka ega emas, shuning uchun unga nisbatan jarima yoki musodara kabi jazo choralari amalda qo'llab bo'lmaydi; uchinchidan, hozirgi SI tizimlari hatto "kuchli" deb ataladiganlari ham inson ongiga xos iroda erkinligi va axloqiy mas'uliyatni his qilish qobiliyatiga ega emas.

Shunday qilib, jinoyat huquqi "tayyor emas" degan xulosa ortidan ham muhim nuans yashiringan ya'ni muammo jinoyat huquqining o'zida emas, balki uning SI texnologiyalari bilan "interfeys" qila oladigan yangi yordamchi institutlar, texnik ekspertiza, algoritmik audit, muassasaviy komplaens va transchegaraviy huquqiy hamkorlik bilan to'ldirilishi zaruratidadir.

Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti, ayniqsa sun'iy intellekt tizimlarining tobora avtonomlashib borishi jinoyat huquqi oldiga mutlaqo yangi nazariy va amaliy savollarni qo'ymoqda. Ilgari faqat ilmiy fantastikada uchraydigan "insonsiz jinoyat" haqidagi tasavvurlar bugungi kunda huquqiy voqelikka aylanib, jinoyat huquqining an'anaviy institutlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Biroq o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, muammoning yechimi sun'iy intellektni mustaqil jinoyat subyekti sifatida e'tirof etishda emas, balki uning ishtirokida sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun insonning huquqiy mas'uliyatini yanada aniq, adolatli va samarali taqsimlashdadir.

Zamonaviy texnologik taraqqiyot bosqichida sun'iy intellekt ong, iroda erkinligi, axloqiy tanlov qilish va o'z qilmishining huquqiy oqibatlarini anglash kabi jinoiy javobgarlikning fundamental shartlariga ega emas. Shu bois, uni jinoyat huquqining mustaqil subyekti sifatida tan olish ham nazariy, ham amaliy jihatdan yetarlicha asoslanmagan. Shu bilan birga, sun'iy intellekt orqali sodir etiladigan huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni faqat bevosita ijrochi zimmasiga yuklash ham yetarli emas. Bunday holatlarda ishlab chiqaruvchi, dasturchi, mulkdor, operator va foydalanuvchi o'rtasidagi vazifalar hamda nazorat majburiyatlari doirasi aniq belgilanishi, ayb esa algoritmnining "ichki psixik munosabati" emas, balki inson tomonidan xavflarni oldindan ko'rish, nazorat qilish va oldini olish majburiyatining buzilishi nuqtai nazaridan baholanishi lozim.

Shu munosabat bilan milliy jinoyat qonunchiligida sun'iy intellekt ishtirokida sodir etiladigan ijtimoiy xavfli qilmishlar bo'yicha javobgarlik asoslari, subyektlar doirasi va ularning o'zaro mas'uliyat chegaralarini belgilaydigan maxsus huquqiy mexanizmlarni shakllantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bu jarayonda Yevropa Ittifoqi, Yevropa Kengashi va boshqa davlatlarning ilg'or tajribasini milliy huquq tizimiga moslashtirish, shuningdek, sud-ekspertiza, algoritmik audit, raqamli dalillar va texnik ekspertizalar sohasida institutsional imkoniyatlarni kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Demak, kelajak jinoyat huquqining asosiy vazifasi sun'iy intellektni "aybdor" deb e'lon qilish emas, balki inson tomonidan yaratilgan va boshqariladigan intellektual texnologiyalarning huquqiy oqibatlarini uchun mas'uliyatni adolatli taqsimlaydigan, texnologik taraqqiyotni cheklamaydigan va bir vaqtning o'zida jamiyat xavfsizligini ishonchli ta'minlaydigan huquqiy modelni shakllantirishdan iborat. Zero, sun'iy intellekt huquqning raqibi emas, balki huquq tartibga solishi lozim bo'lgan yangi ijtimoiy voqelikdir. Shu ma'noda, kelajakda jinoyat huquqining samaradorligi texnologiyalarning qanchalik tez rivojlanishi bilan emas, balki qonunning ularga qanchalik tez, aniq va adolatli moslasha olishi bilan belgilanadi.

Bunda jinoyat qonunchiligiga shoshilinch ravishda sun'iy intellektni alohida jinoyat subyekti sifatida kiritishdan ko'ra, avvalo, undan foydalanish bilan bog'liq xavfli faoliyat turlarini, ishtirokchilarning maxsus majburiyatlarini va ushbu majburiyatlarni buzish oqibatlarini aniq belgilash maqsadga muvofiqdir. Xususan, yuqori xavfli sun'iy intellekt tizimlarini ishlab chiqish va qo'llashda majburiy sinovdan o'tkazish, xavflarni hujjatlashtirish, inson nazoratini saqlab qolish, tizim faoliyati haqidagi ma'lumotlarni qayd etish hamda favqulodda vaziyatlarda uni to'xtatish imkoniyatini ta'minlash kabi talablar belgilanishi zarur. Ushbu majburiyatlarga rioya qilmaslik natijasida ijtimoiy xavfli oqibat yuzaga kelgan hollarda jinoiy javobgarlikning asosi algoritmning mustaqil qarori emas, balki mas'ul shaxsning xavfsizlik va nazorat majburiyatlarini aybli ravishda bajarmaganligi bilan bog'lanishi lozim.

Shuningdek, sun'iy intellekt ishtirokidagi qilmishlarni tergov qilish va sudga ko'rib chiqish an'anaviy huquqiy bilimlar bilan bir qatorda maxsus texnik kompetensiyalarni ham talab etadi. Algoritmning qanday ma'lumotlar asosida o'qitilgani, qaror qabul qilish jarayonida qaysi omillar ustuvor bo'lgani, tizim faoliyatiga inson aralashuvi imkoniyati mavjud bo'lgan-bo'lmagani va zararli oqibatni oldindan aniqlash mumkinligi ekspertiza orqali aniqlanishi kerak. Shu bois, kelajakda algoritmik sud ekspertizasi, sun'iy intellekt tizimlari faoliyatining raqamli izlarini saqlash va ularni protsessual dalil sifatida baholashning maxsus qoidalarini ishlab chiqish zarur. Mazkur choralar jinoiy javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash bilan birga, texnologik tizimdagi nosozlik uchun aybsiz shaxsning javobgarlikka tortilishining oldini olishga ham xizmat qiladi.

IQTIBOSLAR/CHOCKI/REFERENCES:

1. Hallevy, Gabriel. *When Robots Kill: Artificial Intelligence Under Criminal Law*. Boston: Northeastern University Press, 2013. ISBN 978155538019. // URL: https://repo.darmajaya.ac.id/4876/1/When%20Robots%20Kill_%20Artificial%20Intelligence%20under%20Criminal%20Law%20%28%20PDFDrive%20%29.pdf.
2. Simmler, Monika; Markwalder, Nora. *Guilty Robots? – Rethinking the Nature of Culpability and Legal Personhood in an Age of Artificial Intelligence*. *Criminal Law Forum*, Vol. 30, 2019, pp. 1–39. DOI: [10.1007/s10609-018-9360-0](https://doi.org/10.1007/s10609-018-9360-0).
3. Duan, Zhuozhen. *Artificial Intelligence and the Law: Cybercrime and Criminal Liability*. *The British Journal of Criminology*, Vol. 62, 2022, p. 257. URL: <https://academic.oup.com/bjc/article-abstract/62/1/257/6284070>
4. Kingston J. **Artificial Intelligence and Legal Liability** // *Innovative Techniques and Applications of Artificial Intelligence: Proceedings of the International Conference on Innovative Techniques and Applications of Artificial Intelligence*. – Cham: Springer, 2016. – P. 269–279. DOI: [10.1007/978-3-319-47175-4_20](https://doi.org/10.1007/978-3-319-47175-4_20)
5. *Criminal Liability For AI-Based Cybercrime: Comparative Analysis Of Common Law And Civil Law Approaches*. *Journal of Law, Politic and Humanities*, 2025. pp. 1064-1065. URL: <https://dinastires.org/JLPH/article/view/2683>.
6. Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act), adopted 13 June 2024, entered into force 1 August 2024. Ref.: EUR-Lex 52024PC0264, <https://eurlex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:52024PC0264>.

7. Council of Europe Framework Convention on Artificial Intelligence and Human Rights, Democracy and the Rule of Law, CETS No. 225, adopted by the Committee of Ministers 17 May 2024, opened for signature in Vilnius 5 September 2024. <https://www.coe.int/en/web/artificial-intelligence/the-framework-convention-on-artificial-intelligenceyu>
8. European Parliament, Committee on Legal Affairs, Civil Law Rules on Robotics, 2017; Open Letter to the European Commission on Artificial Intelligence and Robotics, signed by AI and robotics experts, <http://www.robotics-openletter.eu/> (2018).
9. Hallevy, Prof. Gabriel, The Basic Models of Criminal Liability of AI Systems and Outer Circles (June 11, 2019). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3402527> or <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.3402527>.
10. Wojtczak S. *Endowing Artificial Intelligence with Legal Subjectivity* // **AI & Society**. – 2022. – Vol. 37, No. 1. – P. 1–9. DOI: 10.1007/s00146-021-01147-7. pp. 205 – 213.
11. Simmler M., Markwalder N. *Guilty Robots? – Rethinking the Nature of Culpability and Legal Personhood in an Age of Artificial Intelligence* // **Criminal Law Forum**. – 2019. – Vol. 30, No. 1. DOI: 10.1007/s10609-018-9360-0.
12. Бегишев И.Р., & Хисамова З.И. (2022). ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И УГОЛОВНЫЙ ЗАКОН : МОНОГРАФИЯ. МОСКВА: ПРОСПЕКТ, 2021. 192 С. Виктимология, 9 (1), 127-129. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/iskusstvennyy-intellekt-i-ugolovnyy-zakon-monografiya-moskva-prospekt-2021-192-s>.
13. Хисамова Зарина Илдузовна, & Бегишев Ильдар Рустамович (2019). УГОЛОВНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ И ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРИКЛАДНЫЕ АСПЕКТЫ. Всероссийский криминологический журнал, 13 (4), 564-574. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ugolovnaya-otvetstvennost-i-iskusstvennyy-intellekt-teoreticheskie-i-prikladnye-aspekty>.
14. Gless, Sabine; Silverman, Emily; Weigend, Thomas. If Robots Cause Harm, Who Is to Blame? Self-Driving Cars and Criminal Liability. *New Criminal Law Review*, Vol. 19, No. 3, 2016, pp. 412-436. URL: <https://www.jstor.org/stable/26417695>
15. Gless, Sabine; Ligeti, Katalin. Regulating driving automation in the European Union – criminal liability on the road ahead? *New Journal of European Criminal Law*, 2024. DOI: 10.1177/20322844231213336.

YURIST AXBOROTNOMASI
4-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА
НОМЕР 4

LAWYER HERALD
ISSUE 4

ISSN 2181-9416
DOI JURNAL: 10.34920/2181-9416/2026/4
2026-YIL